

**USTOZ-SHOGIRD AN'ANALARI ASOSIDA KULOLCHILIK SAN'ATINI
O'RGATISH ORQALI TALABA-YOSHLARNING BADIY-IJODIY
QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH**

Gulyamov Komiljon Maxmudovich

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti,

“Amaliy bezak san’ati” kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Tel.: +99899 8509170 k.gulyamov68@yandex.com

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek kulolchilik maktablari tomonidan ushbu san’atni yanada rivojlantirish, an’ana va qadriyatlarimizni tiklash, keng targ‘ib etish va uni yoshlarga o‘rgatish borasida amalga oshiralayotgan ishlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: loy, kulolchilik maktabi, usta, an’ana, shogird, hunarmand, naqsh, bezak, buyum, uslub, chinni, idish, sulola.

**DEVELOPING THE ARTISTIC AND CREATIVE ABILITIES OF
STUDENTS AND YOUTH BY TEACHING THE ART OF POTTERY
BASED ON THE MASTER-APPRENTICE TRADITION**

Gulyamov Komiljon Makhmudovich

National Institute of Fine Arts and Design named after Kamoliddin Bekhzod,

Associate Professor of the Department of “Applied Decorative Art”,

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc)

Abstract

The article talks about the work carried out by Uzbek pottery schools to further develop this art, to restore our traditions and values, to widely promote and teach it to young people.

Keywords: clay, pottery school, master, tradition, apprentice, craftsman, pattern, decoration, object, style, porcelain, vessel, dynasty.

Islom dinigacha bo‘lgan davrda loydan yasalgan xudolar oilani turli muammolardan himoya qilgan, bolalar hushtaklari ham loydan yasalgan. Loy idish-tovoq tayyorlash uchun almashtirib bo‘lmaydigan ashyo xisoblangan. Xayratlanarlisi shundaki, O‘zbekistonda ko‘plab kasblarning orasida kulolchilik san’atini qadim zamonlardan



beri eng sharaflı va hurmatga sazovor kasb sifatida e'tirof etish joiz. Mamlakatning har bir mintaqasida o'zining qadimgi kulolchilik maktablari mavjud bo'lib, uning badiiy an'analari uzoq o'tmishga ega.

Samarqand atrofıdagi Afrosiyob tepaliklaridan arxeologlar ko'plab haykalchalar – terrakotadan yasalgan hayoliy hayvonlar, ajdaho va sherlarning tasvirlari, afsonaviy Maraqanddan ikki ming yil oldin yashagan noma'lum ustalar tomonidan yasalgan sopol idishlar parchalarini topilgan. XX asrning o'rtalarida xalq ustasi – kulol Umar Jo'rakulov olimlarning topilmalariga diqqat bilan nazar tashlar ekan, u qadimiy bezaklar va plastika texnikalarni o'rganib, qadimiy san'atni tiklagan holda ajoyib figuralarni yasashni boshlagan. Hozirgi kunda ustazoda nomi bilan atalgan Samarqand ko'chalaridan birida joylashgan kulolchilik ustaxonasida uning shogirdlari Afrosiyob kulolchilik an'analarni davom ettirmoqdalar. Eshak va otlarga mingan kulgili chavandozlar, choyxona va bozor manzaralari, masxarabozlar va ajdarlar kabi terrakota mahsulotlari sayyohlarning Samarqandga qilgan safarlarini esda qolarli bo'lishi uchun yaxshi esdalik sovg'asi bo'ladi.

Loydan o'yinchoqlar ko'plab hunarmandlar tomonidan yasalgan, ammo ularning haqiqiy san'at asari darajasiga yetkazish hammaga ham nasb qilavermaydi. O'yinchoq hushtagi qadimgi Uba qishlog'ida yashab ijod qilgan hunarmand Hamro Rahimovaga mashhurlik keltirgan. Bugungi kunda an'analarni saqlovchi uning shogirdi Kubaro Boboeva o'z shogirdlariga ko'p boshli otlar va qo'zilarni, yorqin bo'yalgan va qattiq jaranglaydigan hushtaklarni yasashni o'rgatmoqda.

Ubadan uzoqroqda, Buxorodan qirq kilometr uzoqlikda, Buyuk Ipak yo'li bo'ylab o'zining kulolchilik buyumlari bilan mashhur bo'lgan G'ijduvon shaharchasida O'zbekiston Badiiy akademiasining haqiqiy a'zosi mashhur usta kulol Alisher Narzullaev yashaydi. U kulollar sulolasining oltinchi avlodi xisoblanadi. A.Narzullaev tomonidan tayyorlangan idishlar – lagan, piyola, kosa, vazalar tovus patlari rangini eslatuvchi naqshlar bilan bezatilgan. Qalin sir qatlami bilan tinchlantirilgan bo'yoqlarning yorqin ranglari akvarelning yumshoqligi va go'zalligini kasb etadi. Kulol charxi ustida ishlash, loydan g'ayrioddiy shaklga ega buyumlarni yaratish va ularni badiiy bezash sirlari Alisherga uning otasi usto Ibodullo Narzullaev tomonidan meros qolgan.

Dunyoning eng qadimgi shaharlaridan biri – Xivada Xorazm kulolchilik maktabi rivojlandi, u geometrik naqshlarining grafik jihatdan aniqligi, mahobatlıligi bilan ajralib turadi. Kulolchilik buyumlaridagi naqshlar qadimgi Ichan-Qal'aning mashhur me'moriy yodgorliklari devorlari mayolika bezagi bilan shu qadar qo'shib ketishi yorqinlikni aks ettiradi. Bu esa bugungi hunarmandlar xon saroy va



masjidlarini bezatgan xalq ustalarining bevosita avlodlari ekanidan dalolat yueradi. Zamonaviy kulollar ishkor sirini tayyorlash uchun xuddi shu tabiiy modda, aralashmalardan foydalanganlar, ular ajdodlari tomonidan soʻnmaydigan koʻk, nilobi, feruza plitalarini tayyorlash uchun ishlatilgan.

Oʻzbekistonning istalgan burchagida kulolchilik sanʼati ixlosmandlari oʻziga xos noyob badiiy bezak uslubi, dekorativ shakllarning sofligi va qoʻlda tayyorlanganlik jonli tuygʻusini shohidi boʻlishlari mumkin. Ammo kulolchilik sanʼatining chinakam bilimdonlari Fargʻona vodiysining Rishtoniga borishga intiladilar.

Tarixiy maʼlumotlarga koʻra, sopol idishlar Rishtonda ming yil avval paydo boʻlgan. Rishton kulollari – koʻzagarlar oʻzlarini kulolchilik sanʼati asoschilarining avlodlari va eski anʼanalarni saqlovchilar deb bilishadi.

Oʻrta asrlarda Rishton ustalarining sanʼati Buyuk Ipak yoʻli boʻylab koʻplab shahar va mamlakatlarda shuhrat qozongan. Amir Temur oʻzining qudratli Movarounnahr imperiyasini yaratgandan soʻng, ushbu imperiyaning bozorlarida barcha mamlakatlarning eng yaxshi tovarlarini topish mumkin edi. Eng qimmatbaho buyumlar orasida xitoy oq chinnisi ham bor edi. Ammo xitoyliklar uni ishlab chiqarish sirini hech kimga bermaganlar.

Maʼlumki, Amir Temur XIV asr oxirida bir necha ustalarni Samarqanddan Rishtonga joʻnatgan. Aynan oʻsha paytda xitoy oq chinnisini ishlab chiqarish texnologiyasini aniqlashga urinishlar qilingan. Fargʻona vodiysida yuqori sifatli kaolinli loy konlari boʻlmaganligi sababli, bu urinishlar muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Lekin Rishtonda «chinni» deb nomlangan, oq sir bilan qoplangan mahalliy loydan yarim fayans yasash usuli topilgan. Ushbu uslub oʻzbek zaminida oʻziga xos rivoj topdi. Aytish kerakki, Rishton kulollari tomonidan XIX asrning oʻzidayoq chinnidan idishlar tayyorlangan. Qadimgi Sharq eʼtiqodlariga koʻra, havo rang baxtni anglatadi, chunki u suv va osmon rangidir.

Hozirgi kunda Samarqand, Gʻijduvon va Toshkentning xalq ustalari mahsulotni qoplash uchun asosan qoʻrgʻoshin siridan foydalanishadi. Rishton kulollari esa hanuzgacha oʻzlariga maʼlum boʻlgan butalar kulidan tayyorlangan «ishqor» sugʻorish usulini qoʻllaydilar. Ustalar unga qalay, kobalt oksidi, mis yoki temir qoʻshadilar. Ushbu qoʻshimchalarning kul tarkibidagi kaliy bilan birikmasiga qarab ishkor sir ultramarin, firuza, oq, qora yoki jigarrang ranglarga ega boʻladi.

Oʻzbekistonning boshqa kulolchilik markazida Rishtondagi kabi turli xil mahsulot shakllari mavjud emas. Turli taomlar solish uchun lagan, kosa va shokosa, ulkan koʻza va xumlar, qoʻshquloq, oftoba, oʻrdak – hayoliy qush shaklidagi idishlar – kulollar fantaziyasining chegarasi yoʻq.



Uzoq o'tmishdan naqshli bezaklardan iborat sehrli tasvirlar mavjud bo'lgan, ammo ularning ramziy va badiiy yechimi avloddan-avlodga qanday qilib o'tishi hali ham ma'lum emas. Ustalar kulolchilik buyumlarini anor mevalari, aylana va spiral bezaklar – quyosh, oy va koinotning qadimiy ramzlari bilan shoxcha shaklidagi naqshlar bilan bezashgan.

Italiya, Vengriya, Fransiya, Belgiya, Rossiyadagi muzeylar ekspozitsiyalari Temuriylar davri kulolchilik an'alarining jonli timsoli bo'lgan Rishton ustalarining zamonaviy asarlari bilan bezatilgan. So'nggi yillarda Ibragim Komilov, Rustam Usmonov, Sharafutdin Yusupov, Mahmud Azizovning shogirdi usto Nabijon Qodirovning ishlari Shveysariya, Germaniya, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda bo'lib o'tgan ko'rgazmalarda tomoshabinlar tomonidan e'tirof etilgan. Butun dunyo kolleksionerlari Rishton kulolchilik namunalari sotib olishga intiladilar. Va har qanday sayyoh ham Rishton kulolchilik ustaxonalarida loydan yasalgan mo'jizani sotib olishdan o'zlarini ushlab turolmaydilar.

Rishtonda ustalarining tashabbusi va mahalliy hokimiyatning qo'llab-quvvatlashi natijasida yetakchi kulol ustalarining ijodini targ'ib qilish sezilarli darajada faollashdi. Mashhur markazning bir qator muzeylari va xalq ustalarining ijodiy studiyalari tashkil etildi. Ular orasida taniqli usta kulol Ibraxim Komilovning uy-muzeyi, Rustam Usmonov tomonidan yaratilgan uy-galereya (1997), Alisher Nazirovning ijodiy ustaxonasi (2005) shular jumlasidandir. Bularning barchasi, shubhasiz, Rishton kulolchiligining ishlab chiqarishdagi ijodiy va tashkiliy muammolarga qaramay, Markaziy Osiyodagi ushbu yirik an'anaviy kulolchilik markazi to'g'ri yo'nalishda rivojlanayotganligi ishonchni ruhlantiradi. 2021 yilning 29 yanvar kuni Rishton tumanida kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan markazning ishga tushishi yuqoridagi fikrlarning yaqqol dalili sifatida e'tirof etishimiz mumkin [3, 8].

Rishton yaqinidagi Minor qishlog'idan Muzaffar Saidov ham ishqorli kulolchilik an'alarida faoliyat olib boradi va Namangan viloyatida qadimgi G'urumsaray qishlog'ida eng keksa usta G'afurjan Masharipov ustози – taniqli usto Kenja an'alarini davom ettiradi. Aynan shu erda, G'urumsaroyda toshkentlik taniqli usta kulol, O'zbekiston Badiiy Akademiyasining haqiqiy a'zosi Akbar Rahimov bundan bir necha yil oldin usto Maxmud Rahimovdan ko'k sirli «ishqor» tayyorlashning qadimiy texnologiyasi sirlarini o'rgangan.

Toshkentning Ko'kcha dahasida shaharning diqqatga sazovor joylaridan biri – Muxitdin Rahimov nomidagi uy-muzey joylashgan. Mashhur kulollar sulolasining to'rtinchi avlod vakili, kulol-texnolog, olim, serqirra ijodkor ajoyib hayot yo'lini



kechirgan. M.Rahimov nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib, qirq yildan ortiq Respublika San'atshunoslik institutida katta ilmiy xodim bo'lib faoliyat ko'rsatgan. Qadimgi kulolchilik markazlariga uyushtirilgan arxeologik ekspeditsiyalar, ko'plab sayohatlarda u Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg'ona vodiysi kulolchilik san'atining an'anaviy badiiy texnikasini puxta o'rgangan. Muxitdin Rahimov ko'p yillar davomida Kushon davri va Temuriylar davri kulolchiligini o'rganib, O'zbekistondagi kulolchilik tarixi va kulolchilik buyumlarini tayyorlash va qayta ishlash texnologiyasi, kulolchilikda turli xil ramzlar va badiiy tasvirlarning talqini bo'yicha bir necha kitoblar yaratgan. Uning o'zbek kulolchilik san'ati muammolariga bag'ishlangan o'nlab maqolalari nashrdan chiqqan.

Muxitdin Rahimov o'z ishini juda sevar kunini asosiy ishiga – kulol charxida rang-barang buyumlar yasashga va ularni bezatishga bag'ishlagan. U Kushon va Temuriylar davriga oid juda ko'p turli xil ajoyib asarlar yaratib, o'sha davr kulolchilik uslubini qayta tiklashga muvaffaq bo'lgan. M.Rahimov yaratgan asarlarida tinchlik va farovonlik ramzi bo'lgan jannat qushlarining suruvlari, murakkab geometrik naqshlar va stilizatsiya qilingan arab yozuvlari bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan hamda suzib yurgan baliqlar esa qadimdan buyon boylik va baxtni anglatadi. Usta Muxitdin kulolchilik an'analari, o'zining benazir mahorati va mukammallikka intilishini o'g'li Akbarga meros qoldirgan [2, 39].

Taniqli kulol-rassomi Akbar Rahimov otasi vafotidan so'ng o'z mablag'lari hisobidan xususiy uy-muzeyini yaratdi. U yerda otasining kulolchilik ustaxonasi, shaxsiy buyumlari, kitoblari va albatta. ustaning asarlari asosiy o'rinni egallaydi. Shuningdek, bu yerda Akbar akaning va uning o'g'li, sulolaning oltinchi avlod davomchisi Alisher Rahimovning asarlari to'plangan. Yosh bo'lishiga qaramay mashhur kulollar sulolasi davomchisi, iste'dodli rassom Alisher Raximov tomonidan yaratilgan buyumlar nafaqat O'zbekistonda balki, dunyoning Fransiya, Germaniya va Yaponiya kabi davlatlarida o'tkazilgan ko'rgazmalarda muvaffaqiyatli namoyish etilgan. U oilaviy an'analarni davom ettirib, Kushonlar va Temuriylar davriga oid sayqallangan kulolchilik uslubida ijod qilib keladi. Alisherning V asr Toshkent o'yma kulolchiligini qayta tiklash ustida ish olib borayotganligi taxsinga loyiq. Shuningdek, uning tomonidan qadimda mashhur bo'lgan «qoshg'ariy» uslubi asosida bir qator asarlar yaratilganini alohida e'tirof etish joiz [7].

Mamlakatimizda qadimdan milliy qadriyat sifatida rivojlanib kelayotgan kulolchilik an'analarni asrab-avaylash, xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish, uni keng targ'ib



etish, xalq ustalarining mehnatini munosib rag‘batlantirish va yoshlarni ushbu san‘atga jalb etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu ma‘noda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 23 martdagi «Kulolchilikni jadal rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-5033-son qarori ushbu sohaga berilayotgan e‘tiborning yaqqol dalilidir. Mazkur qarorda hududlarda kulolchilik an‘analarini tiklash va rivojlantirish maqsadida sohada ixtisoslashgan markazlar va galereyalar tashkil etish, kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqarilishini kengaytirish kabi an‘anaviy va zamonaviy kulolchilikni yanada rivojlantirish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlar belgilab berilgan [1].

Ushbu hujjatga muvofiq Qo‘qon va Marg‘ilonda hunarmandchilik markazlari qurildi. Rishtondagi yangi barpo etilgan markaz esa uning mashhur kulolchilik maktabiga bag‘ishlangan.

Bu yerda ikkita ikki qavatli uy, Rishton tarixi muzeyi va bank xizmatlari markazi barpo yetildi. Ustaxonalar va do‘konlar uylarning birinchi qavatida, hunarmandlar oilalari esa ikkinchi qavatda joylashgan. Uylarda 6 kishiga mo‘ljallangan mehmonxonalar mavjud. Chet ellik sayyohlar bu yerda joylashib, kulollarning ishi bilan tanishishlari mumkin.

Markazning ochilishi bilan 250 ga yaqin ish o‘rni yaratildi. Kulolchilik mahsulotlari Birlashgan Arab Amirliklari, Chexiya, Turkiya, Rossiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va boshqa mamlakatlarga eksport qilinadi.

Shuningdek, kulolchilik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab quvvatlash, usta-shogird maktablari faoliyatni tubdan takomillashtirish orqali yoshlarni sohaga keng jalb qilish masalalariga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘zbek kulolchilik maktablari tomonidan ushbu san‘atni yanada rivojlantirish, an‘ana va qadriyatlarimizni tiklash, keng targ‘ib etish va uni yoshlarga o‘rgatish borasida amalga oshirayotgan ishlar “Uchinchi renessans”ni barpo etuvchi yosh avlodni tarbiyalashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 23 мартдаги “Кулолчиликни жадал ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5033-сон қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.03.2021 й., 07/21/5033/0227-сон.



2. Алиева С.Ш. Кулол Акбар Рахимов // SAN`AT. – Т.: 1999. – № 2. – Б.38-40.
3. Алиева С.Ш. Особенности керамики Ферганской долины // SAN`AT. –Т.: 2011. – № 1. – С.6-9.
4. Алиева С.Ш., Хакимов А.А. Метаморфозы в керамике Узбекистана: индивидуальность и традиция // SAN`AT. – Т.: 2012. – №3. – С.29-33.
5. Gulyamov K.M. Modern technologies for the development of professional competence of teachers of applied arts // Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation (TJPR) ISSN:2651-4451 E-ISSN:2651-446X VOLUME 32, ISSUE 3, 2021. – P. 33734-33744. <https://turkjphysiotherrehabil.org/pub/pdf/321/32-1-3686>.
6. Gulyamov K.M. Development of artistic and creative abilities of future pedagoguesartists in the process of professional training in higher education institutions // Neuroquantology, eISSN 1303-5150, Volume 20, Issue 12, october 2022, – P. 3400-3408. <https://www.neuroquantology.com/article.php?id=8994>
7. <https://abasayyoh.com/ru/attractions/156#>

